

UDK: 364.4(575.1)

Shanazarov Farrux Samarqand

iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0003-4377-2086

f.shanazarovv@gmail.com

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMINING AMALDAGI HOLATI VA TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimining amaldagi holati, institutsional o'zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi ijtimoiy xizmatlar samaradorligini baholash, hududiy tafovutlarni aniqlash hamda mavjud muammolarni tizimli o'rganish bilan bog'liq. Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy yondashuv, institutsional tahlil va SWOT usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda manzilli ijtimoiy yordam tizimi takomillashgan, raqamlashtirish jarayonlari kuchaygan, biroq hududlar kesimida xizmat sifati va resurs taqsimotida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Muallif tomonidan ijtimoiy xizmatlar samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy himoya, manzilli yordam, institutsional islohotlar, hududiy tahlil, inson kapitali, davlat siyosati

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние системы социальных услуг в Узбекистане, ее институциональные преобразования и тенденции развития. Исследовательская проблема связана с оценкой эффективности социальных услуг, выявлением региональных различий и системным изучением существующих проблем. В ходе исследования были использованы методы статистического анализа, сравнительного подхода, институционального анализа и SWOT-метод. Результаты показывают, что в последние годы система адресной социальной помощи была усовершенствована, процессы цифровизации усилились, однако в разрезе регионов сохраняется диспропорция в качестве услуг и распределении ресурсов. Автором предложена комплексная система индикаторов для оценки эффективности социальных услуг.

Ключевые слова: социальные услуги, социальная защита, адресная помощь, институциональные реформы, региональный анализ, человеческий капитал, государственная политика

Abstract : This article analyzes the current state of the social services system in Uzbekistan, its institutional transformations, and development trends. The research problem focuses on assessing the effectiveness of social services, identifying regional disparities, and conducting a systematic study of existing challenges. The study applies statistical analysis, comparative approach, institutional analysis, and SWOT methodology. The findings indicate that in recent years the targeted social assistance system has been improved and digitalization processes have intensified; however, disparities in service quality and resource allocation across regions still remain. The author proposes a comprehensive system of indicators for evaluating the efficiency of social services.

Keywords: social services, social protection, targeted assistance, institutional reforms, regional analysis, human capital, public policy

Kirish. Raqamli iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlar aholining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy himoya va boshqa hayotiy muhim sohalaridagi ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan murakkab iqtisodiy-ijtimoiy institut sifatida shakllanmoqda.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ortishi, daromadlar darajasining oshishi va jamiyatda ijtimoiy standartlarning yuksalishi xizmatlar sifatiga bo'lgan talabni mutlaqo yangi bosqichga olib

chiqmoqda. Natijada ijtimoiy xizmatlarning mazmuni va funksional vazifalari kengayib, ularning sifat ko'rsatkichlari, manzilliligi, shaffofligi va natijadorligiga nisbatan talablar kuchaymoqda.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlar faqat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida emas, balki inson kapitalini shakllantirish, mehnat bozori samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaralmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitali asosiy resursga aylangan ekan, ijtimoiy xizmatlar uning sifat jihatdan rivojlanishini ta'minlovchi muhim infratuzilmaviy asos hisoblanadi.

Ayniqsa, raqamli transformatsiya, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish sharoitida ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning yangi tashkiliy-iqtisodiy modellarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois, bozor iqtisodiyotining rivojlanayotgan sharoitida ijtimoiy xizmatlarning institutsional, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy ishlanmalar yaratish zarurati yanada kuchaymoqda.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini isloh qilishda innovatsion yondashuv asosida xorijiy tajribalardan maqbul foydalanishni taqozo etadi. Bu vazifalarni bajarish ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishni yangi shakl va usullarini o'rganishni va amaliyotga joriy etishda, ularni iqtisodiy sektorga kiritish uchun nazariy va amaliy ishlanmalarni yaratishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etish sifatini oshirish hamda bu tizimga davlat tomonidan mablag'larni yo'naltirishda samaradorlikka erishish masalalarining nazariy asoslarini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi "PF-60-sonli farmoni[1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5 iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi "PF-82-sonli farmoni [2], shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida mazkur mavzu dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, kompleks va izchil ilmiy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda muammoning mohiyatini nazariy jihatdan asoslash, empirik tahlil orqali uni baholash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishni ta'minlovchi tizimli tadqiqot dizayni qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yo'li bir necha o'zaro bog'liq bosqichlarda tashkil etildi. Birinchi bosqichda ijtimoiy xizmatlar tizimining iqtisodiy mazmuni va institutsional ahamiyatini ochib berish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili, meta-sintez va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu bosqichda ijtimoiy himoya nazariyasi, inson kapitali konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda barqaror rivojlanish modeli tadqiqotning nazariy poydevori sifatida qabul qilindi.

Ikkinchi bosqichda ijtimoiy xizmatlar samaradorligini baholash uchun konseptual tahlil modeli ishlab chiqildi. Unda davlatning ijtimoiy xarajatlari, xizmatlar qamrovi va manzilliligi, inson kapitali rivojlanishi, bandlik darajasi hamda kambag'allik dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda asoslandi. Mazkur model ijtimoiy xizmatlarning faqat xarajat ko'rsatkichlari emas, balki natijaga yo'naltirilgan ta'sir mexanizmlari orqali baholanishini nazarda tutadi.

Uchinchi bosqichda empirik tahlil amalga oshirildi. Tahlil Davlat statistika agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Moliya vazirligi va boshqa rasmiy manbalar ma'lumotlari asosida olib borildi. Ko'p yillik dinamik ma'lumotlar va hududiy kesimdagi ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ijtimoiy xarajatlar ulushi, xizmatlar qamrovi, manzilli yordam ko'lami, kambag'allik darajasi, bandlik ko'rsatkichlari hamda inson rivojlanish indikatorlari o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Dinamik va qiyosiy tahlil usullari orqali tendensiyalar aniqlandi.

To'rtinchi bosqichda tizim samaradorligi baholandi va mavjud muammolar aniqlashtirildi. Bu jarayonda SWOT tahlil usulidan foydalanilib, ijtimoiy xizmatlar tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari tizimlashtirildi. Shu asosda institutsional va tashkiliy-iqtisodiy takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi rasmiy va tekshirilgan statistik manbalardan foydalanish, ma'lumotlarni o'zaro solishtirish va ko'p yillik dinamik tahlil orqali ta'minlandi. Ko'rsatkichlarning nazariy jihatdan asoslanganligi va konseptual modelga mosligi tadqiqotning aniqligini ta'minladi. Tanlangan usullar tadqiqot maqsad va vazifalariga to'liq mos bo'lib, metodologik izchillik va ichki muvofiqlikni ta'minladi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy xizmatlar tizimini kompleks baholash, uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi izchil ilmiy yondashuvni shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy xizmatlar konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari turli iqtisodiy va ijtimoiy maktablar doirasida shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan mazmunan boyib borgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar tushunchasi institutsional, funksional hamda postmodernistik yondashuvlar nuqtai nazaridan keng o'rganilgan.

Institutsional yondashuv doirasida ijtimoiy xizmatlar davlatning ijtimoiy majburiyatlarini amalga oshirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Funksional yondashuv esa ijtimoiy xizmatlarni aholining muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan amaliy faoliyat turi sifatida izohlaydi. Postmodernistik yondashuvda esa ijtimoiy xizmatlar inson huquqlari, ijtimoiy adolat va inklyuziv rivojlanish kontekstida qaraladi.

Shu jihatdan, ijtimoiy xizmatlar tizimi nafaqat ijtimoiy siyosat instrumenti, balki inson kapitali rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim institut sifatida baholanadi.

Bu borada, institutsional nazariya maktabi vakillaridan Richard Titmusning "Commitment to Welfare" [3] asarida ijtimoiy xizmatlarni "jamiyatning o'z a'zolariga nisbatan ma'suliyatini anglashining ko'rinishi" deb ta'riflagan. Uning konsepsiyasi ijtimoiy xizmatlarni bozor mexanizmlaridan mustaqil, davlatning ijtimoiy funksiyalarini bajaruvchi institut sifatida ko'rib chiqadi. U ijtimoiy xizmatlarning uch asosiy modelini ajratgan: qoldiq modeli, sanoat-yutuq modeli va institutsional qayta taqsimlash modeli.

Norman Djonson "The Welfare State in Transition" [4] kitobida ijtimoiy xizmatlarni kengroq talqin qilgan: "Ijtimoiy xizmatlar – aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun davlat yoki davlat nazorati ostidagi tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqa xizmatlarni o'z ichiga olgan faoliyatlar majmui". Djonson ijtimoiy xizmatlarning beshta asosiy xususiyatini ochib bergan: jamoatchilik, universallik, professionallik, byurokratiya va davlat moliyalashtirishi. Robert Pinker [5] "Making Sense of the Mixed Economy of Welfare" asarida ijtimoiy xizmatlarni "ijtimoiy farovonlik davlati konsepsiyasining amaliy ifodasi" deb baholagan. U ijtimoiy xizmatlarning plyuralistik xarakterini ta'kidlab, davlat, bozor, xayriya va oilaviy sektorlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatgan.

Gyosta Esping-Andersen o'zining "The Three Worlds of Welfare Capitalism"[6] kitobida ijtimoiy xizmatlarni farovonlik davlatining ajralmas qismi sifatida tahlil qilgan. U uch tur farovonlik rejimini ajratgan: liberal, korporatist va sotsial-demokratik. Har bir rejimda ijtimoiy xizmatlarning ta'minlanishi, moliyalashtirish usullari va maqsadli guruhlar o'zgacha bo'ladi. Unga ko'ra, liberal rejimda (AQSh, Kanada, Avstraliya) ijtimoiy xizmatlar asosan bozor mexanizmlari orqali ta'minlanadi va davlat faqat eng kambag'al qatlamlarga qaratilgan minimal xizmatlar ko'rsatadi. Korporatist rejimda (Germaniya, Fransiya, Italiya) ijtimoiy xizmatlar kasaba uyushmalari va kasaba holati asosida tashkil etiladi. Sotsial-demokratik rejimda (Skandinaviya mamlakatlari) ijtimoiy xizmatlar universal xarakterga ega bo'lib, barcha fuqarolarga teng huquqlar asosida ko'rsatiladi.

Djuliya O'Konnor [7] Esping-Andersenning fikriga qarshi chiqib, ijtimoiy xizmatlarni farovonlik davlatining ajralmas qismi sifatida qaralganda gender omilini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ijtimoiy xizmatlar ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Pol Samuelson "The Pure Theory of Public Expenditure" [8] maqolasida ijtimoiy xizmatlarning ko'pchiligi jamoat tovarlari xarakteriga ega ekanligini ko'rsatgan. Jamoat tovarlarining ikki asosiy belgisi: raqobatsizlik – bir kishi foydalanganda boshqalar uchun foydasi kamaymasligi va chetlashtirilmaslik – hech kimni foydalanishdan chetlatib bo'lmazligidir. Bu xususiyatlar tufayli ijtimoiy xizmatlar bozor mexanizmi orqali samarali ta'minlanishi mumkin emas degan xulosaga kelishadi.

Richard Masgreyv "The Theory of Public Finance" [9] asarida davlatning uch asosiy funksiyasini ajratgan: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlik. Ijtimoiy xizmatlar ushbu uch funktsiyani ham bajarishda muhim ahamiyatga ega. Masgreyv "merit tovarlari" (merit goods) tushunchasini kiritgan – bu tovarlar va xizmatlar, ularning iste'molini jamiyat uning a'zolari o'zlari xohlaganidan ko'proq bo'lishini istaydi, chunki ular ijobiy eksternaliyalarga ega.

Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, Gari Bekker (1964) "Human Capital" [10] kitobida ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini inson kapitaliga investitsiya sifatida ko'rib chiqqan. G. Bekkerning fikricha, "ijtimoiy xizmatlar, ayniqsa ta'lim va sog'liqni saqlash, inson kapitalini shakllantirish vositasi bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi".

Ijtimoiy xizmatlar tizimi mamlakat aholisining turmush sifati, inson kapitali rivojlanishi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional asos hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa xizmat turlariga yo'naltirilayotgan davlat xarajatlari ijtimoiy sohaning amaldagi holatini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, inson kapitali rivojini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Mamlakatda mazkur sohani tartibga solish Konstitutsiya, sohaviy qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, hukumat dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Ijtimoiy xizmatlar tizimining institutsional jihatdan tuzilishida davlat organlari yetakchi o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida Iqtisodiyot va moliya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Sog'liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta'limi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari sohasidagi muassasalar ijtimoiy xizmatlarning turli yo'nalishlari uchun mas'ul hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalla instituti, nodavlat notijorat tashkilotlari va xususiy sektor ham ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishtirok etmoqda. Biroq, mazkur sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashuv darajasi hanzugacha yetarli emasligi kuzatiladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda ijtimoiy sohani rivojlantirish davlat siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasi hamda moliyalashtirish hajmlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar tizimi mamlakat aholisining turmush sifati, inson kapitali rivojlanishi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim iqtisodiy-institutsional mexanizm hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va boshqa xizmatlar jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga iqtisodiy o'sishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy xizmatlar hajmi va sifati ko'p jihatdan mamlakatning makroiqtisodiy holatiga ham bog'liq bo'lib, YaIM o'sishi, davlat budjeti daromadlari, inflyatsiya darajasi va aholi real daromadlari kabi ko'rsatkichlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Bunday tendensiyaning O'zbekistonning makroiqtisodiy indikatorlari tahlilida yanada yaqqol ko'rish mumkin (1-jadval).

**O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy
indikatorlari (2020-2025 yy)¹**

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
YaIM hajmi (mlrd so‘m)	109123 866128, 15	117891 622986, 82	124966 702851, 26	132828 878427, 53	141462 755525, 29	
YaIM o‘shish sur‘ati, (%da)	101,6	108,6	106,0	106,3	106,5	
Xizmatlar hajmi (mlrd so‘m)	103	119,5	116,3	114,1	114,2	
Xizmatlar hajmining o‘shish sur‘ati, (%da)	103	119,5	116,3	114,1	114,2	
Inflyatsiya darajasi, (%da)	10,6	13,7	14,4	13,8	13,4	
Aholi real umumiy daromadlari o‘shish sur‘ati (%da)	99,8	112,6	108,7	106,1	111,7	109,2
Aholi umumiy daromadlar tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi, (%da)	23,1	24,7	28,3	27,1	28,6	29,6
Aholi umumiy daromadlar tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi, (%da)	2	2	2,1	2,8	2,7	3,3
Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar (mehnat faoliyatidan va shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar) , (%da)	74,9	73,3	69,6	70,1	68,7	67,1

Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-2025 yillarda mamlakat iqtisodiyotida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, YaIM hajmi 2020 yilda 109,1 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 141,4 trln so‘mga yetgan (1-jadval). Bunday o‘shish ijtimoiy xizmatlar sohasini moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishning asosiy resurs manbalari mavjudligidan dalolat beradi.

Shuningdek, inflyatsiya darajasi 2020 yilda 10,6% bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 13,4% atrofida shakllangan (1-jadval). Bu holat ijtimoiy xarajatlarning real samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimining moliyaviy ta’minlanishi davlat budjeti orqali amalga oshiriladi. Ta’lim sohasiga davlat xarajatlari 2020 yilda 29961,1 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 71240,5 mlrd so‘mga yetgan. Boshqacha aytganda ta’lim sohasi xarajatlari 138% o‘sganini ko‘rish mumkin. Tibbiyot sohasiga davlat xarajatlari 2020 yilda 19397,2 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 33 439,0 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa sog‘liqni saqlash sohasida davlat xarajatlari 72% oshganini anglatadi (2-jadval). Shuni ta’kidlash joizki, budjetdan ijtimoiy xizmatlar sohasiga xarajatlarning o‘shishi davlatning inson kapitaliga investitsiyalari hajmi oshib borayotganligini ko‘rsatadi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan (<https://stat.uz/en/press-releases/59630-for-2025-year1>)

2-jadval.

**O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohaga davlat xarajatlari
(2020-2024 yy)¹**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2024	o'sish (%) 2020-2024yy.
Ta'lim sohasiga xarajatlar	mlrd so'm	29961,1	39640,8	50271,3	61220,3	71240,5	138
Tibbiyot sohasiga xarajatlar	mlrd so'm	19397,2	23316,8	27288,3	31066,6	33439	72

Ijtimoiy infratuzilma mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, aholi turmush sifati, inson kapitali rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining soni va qamrovi ijtimoiy sohadagi davlat siyosati samaradorligini baholashda asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi.

2020–2024 yillar davomida mamlakatimizda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilib, ta'lim va tibbiyot muassasalarining soni sezilarli darajada oshgan. Ta'lim infratuzilmasi ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, 2020 yilda respublika bo'yicha maktablar soni 10181 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 10943 taga yetgan. Boshqacha aytganda, 4 yil mobaynida 762 taga yoki 7,5%ga ko'paygan (3-jadval). Bunday o'sish demografik omillar hamda ta'lim muassasalarini modernizatsiyalash bilan bog'liq ro'y bermoqda. 3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi (2020-2024 yy)²

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	o'sish (%) 2020-2024 yy.
Maktablar soni	10181	10289	10522	10750	10943	+7.5
Oliy ta'lim muassasalari soni	127	154	191	219	222	+74.8
Har 10000 aholiga to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni	165	229	289	357	385	+133.3
Shifoxona muassasalari soni	1232	1281	1328	1432	1972	+60.1
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	6032	6676	7010	8011	8107	+34.4

Oliy ta'lim muassasalari soni 2020 yilda 127 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 222 tani tashkil etib, qariyb 75% o'sish kuzatilgan. Bu mamlakatda ta'lim sohasini liberallashtirish, yangi davlat va xususiy universitetlarni tashkil etish hamda xalqaro filiallar ochilishi natijasidir. Shuningdek, Har 10000 aholiga to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni 2020 yilda 165 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 385 taga yetgan. Shu davrda o'sish 133.3%ni tashkil etgan. Natijada, aholining oliy ta'limga qamrovi kengayib, mazkur indikator bo'yicha 133% o'sish qayd etilgan. Bu mamlakatda inson kapitaliga investitsiyalar ortib borayotganligini yanada aniq ko'rsatadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Milliy statistika qo'mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

² Ўзбекистон Республикаси Milliy statistika qo'mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan (<https://siat.stat.uz/reports-filed/1377/table-data>).

Sog'liqni saqlash infratuzilmasi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, shifoxona muassasalari soni 2020 yilda shifoxonalar soni 1232 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 1972 tani yoki 60.1%ga ko'paygan. Shuningdek, ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 2020 yilda 6032 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 8107 tani tashkil etib, 34.4%ga oshgan. Bunday o'sish sog'liqni saqlash tizimida davlat investitsiyalari hajmining oshganligi buning natijasida esa, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish qamrovi kengayganligini ko'rsatadi (3-jadval).

Umuman olganda, 2020–2024 yillarda ijtimoiy infratuzilmaning barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimizda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari va ta'lim qamrovi ko'rsatkichlari yuqori o'sish sur'atlarda o'sganligini i qayd etish mumkin. Sog'liqni saqlash muassasalarining ko'payishi esa aholi salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tendensiyalar mamlakatda inson kapitali rivojlanishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini tasdiqlaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi nafaqat davlat xarajatlari hajmi yoki infratuzilma ob'ektlari soni bilan, balki ushbu sohada xizmat ko'rsatuvchi kadrlar ta'minlanganligi hamda aholining ijtimoiy himoya bilan qamrov darajasi bilan ham belgilanadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda ijtimoiy soha kadrlari va ijtimoiy xizmatlar qamrovining 2020–2024 yillardagi dinamikasi inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan o'rganildi (4-jadval).

Ta'lim sohasi kadrlari qamroviga ko'ra, respublikada o'qituvchilar soni 2020 yilda 523 312 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 583 559 nafarga yetgan. Ya'ni ushbu yillar mobaynida 11,5%ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin (4-jadval). Bunday tendensiya ta'lim xizmatlari hajmi kengayib borayotgani, maktablar soni ortishi bilan birga pedagog kadrlarga bo'lgan talab ham o'sganini ko'rsatadi. Bu inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha kadrlari va ijtimoiy xizmatlar qamrovi¹ (2000-2024 yillar)

4-jadval

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	o'sish 2020- 2024 yy.
O'qituvchilar soni, ming kishi	523312	529116	541473	548546	583559	11,5%
Shifokorlar soni, ming kishi	93337	95587	100524	105723	107497	15,2%
10 ming aholiga shifokorlar soni, kishi	27	27,1	27,9	28,7	28,6	1,6
Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni, ming kishi	4029,3	4253,1	4578,1	4827,3	4945,3	22,7
Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning soni, 10 000 aholiga, kishi	1166	1205,8	1270,8	1311,8	1317,2	151,2
Pensionerlarga tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori, ming so'm	848,5	963,6	1080,8	1234,5	1495,6	76,3

¹Ўзбекистон Республикаси Milliy statistika qo'mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan (<https://siat.stat.uz/reports-filed/1377/table-data>)

Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi aholi sonining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, %	103,9	105,6	107,6	105,4	102,4	
---	-------	-------	-------	-------	-------	--

Sog'liqni saqlash sohasida kadrlar ta'minlanganligi darajasiga ko'ra, shifokorlar soni 2020 yilda 93 337 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 107 497 nafarga yetgan. Yoki 15,2%ga o'sgan. Shuningdek, har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni 2020 yilda 27 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 28,6 nafarga yetgan (4-jadval). Bu holat ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari sonining ko'payishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish qamrovi yaxshilanganligini va inson kapitalining muhim komponenti bo'lgan salomatlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Bularning hammasi pirovard natijada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar qamroviga ko'ra, ularning soni 2020 yilda 4029,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 4945,3 ming kishiga yetgan. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi qamrovi 22,7%ga kengayganini ko'rsatadi (4-jadval). Ijtimoiy himoya xizmatlari aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, inson kapitalini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Chunki ijtimoiy kafolatlar mehnat bozoridagi barqarorlik va aholi farovonligiga xizmat qiladi.

Pensionerlarga tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori 2020 yilda 848,5 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 1495,6 ming so'mga yetgan. Yoki ushbu yillarda 76,3%ga oshgan (4-jadval). Buesa, ijtimoiy xizmatlar sifati va aholining real daromadlarini qo'llab-quvvatlash siyosatining amaliy natijasi sifatida qarash mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimining amaldagi holatini tahlil etish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- 2020–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xizmatlar tizimida barqaror ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga davlat xarajatlarining sezilarli darajada ortishi ijtimoiy xizmatlar hajmini kengaytirishga xizmat qildi. Jumladan, ta'lim sohasi xarajatlarining 138%ga, tibbiyot sohasi xarajatlarining esa 72%ga o'sishi ijtimoiy sohani moliyalashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Bu jarayon ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari sonining ko'payishi bilan uyg'un ravishda aholiga xizmat ko'rsatish qamrovi va sifatini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratgan;

- ijtimoiy xizmatlar tizimining rivojlanishi inson kapitali shakllanishi va aholi farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Maktablar, oliy ta'lim muassasalari, shifoxonalar hamda ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining o'sishi bilan bir qatorda, ta'lim va tibbiyot sohasida kadrlar ta'minlanganligi yaxshilangan. Shuningdek, ijtimoiy himoya qamrovining kengayishi va pensiya miqdorining ortishi aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, mehnat resurslarining salomatligi va bilim darajasini oshirish orqali mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishiga xizmat qilmoqda.

- tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar bilan qamrov darajasi yil sayin oshib bormoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sifatini baholash, ularning real ijtimoiy ta'sirini o'lchash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Ko'p hollarda natijadorlik ko'rsatkichlari faqat xizmatlar soni yoki ajratilgan mablag'lar hajmi bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini rivojlantirishga qo'shayotgan haqiqiy hissasini to'liq baholash imkonini bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimi institutsional jihatdan shakllangan bo'lsa-da, uning amaldagi faoliyati samaradorligi cheklangan bo'lib qolmoqda. Mavjud muammolar ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu holat keyingi boblarda ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi " 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi "PF-60-sonli farmoni
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5 iyundagi " Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida "gi " PF-82- sonli farmoni
3. Titmuss R.M. Commitment to Welfare. – London: Allen & Unwin, 1968. – 262 p.
- 4.Johnson N. The Welfare State in Transition: The Theory and Practice of Welfare Pluralism. – Brighton: Wheatsheaf Books, 1987. – 256 p.
- 5.Pinker R. Making Sense of the Mixed Economy of Welfare // Social Policy & Administration. – 1992. – Vol. 26. – No. 4. – P. 273-284.
- 6.Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 248 p.
- 7.O'Connor J.S. Gender, Class and Citizenship in the Comparative Analysis of Welfare State Regimes // The British Journal of Sociology. – 1993. – Vol. 44. – No. 3. – P. 501-518.
- 8.Samuelson P.A. The Pure Theory of Public Expenditure // The Review of Economics and Statistics. – 1954. – Vol. 36. – No. 4. – P. 387-389.
- 9.Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.
- 10.Becker, G.S. (1964) *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. New York: Columbia University Press, 187 p.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) Ijtimoiy soha ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar.
<https://stat.uz/en/press-releases/59630-for-2025-year1> (Accessed: 10 January 2026).